

ZAMONAVIY ENERGIYA TEJAMKOR EKOUYLARNI LOYIHALASH MASALALARI

Jo'rayeva Dilshoda Arapatali qizi

13-SHQKI-22 guruh talabasi,

Namangan Davlat Texnika Universiteti

Ekouy qurilishida ko'pgina anhanaviy konstruktiv yechim va materiallar qo'llash mumkin. Uyning bosh qismi – bu uning korpusi. Uy korpusining asosiy vazifasi – qulay sharoitli yetarli turar –joy hajmini tahminlash. Korpus mexanik jihatidan mustahkam, uzoq umr ko'rishi va binoda issiqlik samarali saqlanib turilishi lozim.

Interg'er. Ekouyning bezashni ishlab chiqish va yaratishda asosiysi –bezash uchun tabiiy, ekologik sof materiallardan foydalanish. Xuddi shuning o'zi santexnik, oshxona va boshqa jihozlarga tegishli. Ekouyning tarixiy yechimlari o'zining alohida xuusiyatlariga ega, ular maxsus muxandislik jihozlash variantlari hamda tavsiya qilingan ichki devorlar (xonalararo), buferli mintaqalar, mansardalar va boshqa konstruktsiyalar bilan to'g'ri bog'langan bo'ladi.

Ichiga qurilgan mebel tavsiya qilinadi, shkaflarni shimoliy devorlar bo'ylab joylashtirish maqsadga muvofiq hisoblanib, bunday joylashtirish issiqlik himoyani oshiruvchi qo'shimcha mintaqalarni paydo qilishga xizmat qiladi.


Ekouy korpusinig oddiy uydan farqli jihati, bu uyga issiqlik sarflash bo'yicha nisbatan yuqori talablar qo'yiladi. Uy korpusini shunday materiallardan tayyorlash zarurki, ular issiqlik yo'qotish miqdorini maksimal darajada pasaytirishlari hamda yozda (kunduzi) to'plangan issiqlik butun qishga (tungga) yetishini tahminlashi zarur. Buning uchun binoni to'suvchi konstruktsiyalarining issiqlik qarshiliklari $R=6$ (m. kv. gr. TSelg'siy/vatt) dan kam bo'lmasligi kerak. Binoning issiqlik himoya samarasini oshirish uchun sovuq xonalardan bufer mintaqalar perimetri bo'yicha o'rnatiladi:

janubiy tomondan issiqxona, ayvon, garaj, ustaxona, qishki omborlar va boshqa yordamchi xonalar loyihalanadi.

Ekouyda issiqlik saqlash uchun asosiy ehtiborni deraza, eshik va kiraverish konstruktsiyalarining issiqlik samaradorligiga qaratish lozim.

Ekouy bufer mintaqalarga ega bo'lganligi sababli samarali yoritishni tahminlash uchun ularga derazalardan tashqari oddiy yorug'lik kanallari o'rnatiladi. Uyni isitish davriy bo'lganligi sababli (quyosh-kunduzi, pechni sutkasiga bir marta yoqish), uyda doimiy haroratni saqlab turish uchun issiqlikning ichki akkumlyatorlari zarur. Akkumlyatorlar o'ziga ortiqcha issiqlikni yig'ib, saqlab, yetishmagan paytida, uyni issiqlik inertsiyasini tahminlab, issiqlik chiqara boshlaydi.

Rasmda anhanaviy uyning turli to'suvchi konstruktsiyalari orqali issiqlik yo'qotishi ko'rsatilgan. Uyning turli to'suvchi konstruktsiyalar orqali issiqlik yo'qotishi.



Quyosh qurilmali uy arxitekturası.

Ekouynig tashqi o'rnatish asosiy elementlari quyidagilar: janubiy tomondagi issiqxona, shimoliy tomondan qurilgan bufer mintaqalar vazifasini bajaruvchi texnik xonalar (garaj, ustaxona), oynavandlangan ayvonlar (g'arbdan yoki sharqdan) kiradi. Ekouy janubga yo'naltirilgan, bu passiv quyosh isitishdan maksimal foydalanish imkonini beradi. Tomda (yoki uydan tashqarida, muayyan sharoitlarga qarab) quyosh batareyalari, quyosh kollektorlari (havoli va suvli) joylashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Щипачева Е.В. Проектирование энергоэффективных гражданских зданий в условиях сухого жаркого климата. Методические указания– ТТЙМИ, 2008 й.
2. SHNQ 2.08.01–2005 Turar joy binolari Toshkent, 2005 y.
3. SanPiN RUz № 0146–04 O'zbekiston iqlim sharoitida turar joylarni sanitar qoidalari va loyihalashni mehyorlari– Toshkent, 2004 y.
4. Buzrukov, Z. S. (2020). OSOBENNOSTI PROEKTIROVANIYA FUNDAMENTOV VQSOTNQX ZDANIY S UCHETOM GRUNTOVQX USLOVIY. Vestnik nauki i obrazovaniya, (22-1), 79-85.
5. Abdurahmonov, A., Husainov, S., & Mirzamurodova, S. (2022, December). DEVELOPMENT OF 'EDESTRIAN' ASSAGES IN THE TERRITORIES OF OUR RE'UBLIC. In INTERNATIONAL CONFERENCE: 'ROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS. (Vol. 1, No. 7, “. 82-87).
6. Abdurahmonov, A., Abdusalomova, F., & Solijonov, X. (2022). MULTI-CORKING RESIDENTIAL BUILDINGS. INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE, 1(8), 82-92.